

TURK VIZUAL MATNLARINING LEKSIK-POETIK XUSUSIYATI

Muhammadxon Hakimov

Filologiya fanlari doktori, professor.

Nargizaxon Xudoyberdiyeva

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunosligimiz uchun yangi tur bo'lgan vizual poetik matnlarning leksik va fonetik xususiyatlari ochib berilgan. Mavzu o'zbek va turk tillaridagi misollar bilan mustajkamlangan.


Kalit so'z: mavhum she'r, vizual poetika, mutarraf, mudavvar, muakkad, geometrik shakl, mushajjar.

Vizual poetik matnlarning yana bir turi sifatida rasmga asoslangan badiiy poetik matnlar ham mavjud. Bu tur turk adabiyotida "mavhum she'r" deb yuritiladi. O'ziga xos o'qish tarziga ega bo'lgan misralardan tashkil topgan. Turk adabiyotida Melayi va Sadiqi ijodida ushbu turning beqiyos namunalarini uchratsak, o'zbek adabiyotida Faxriyorning bir talay she'rlari ushbu turga mansub sanaladi. Turk poetik matnshunosligida qaysi tasvir ifodalanganligiga qarab, vizual poetik matnlarning ushbu turi o'z ichida bir necha qismlarga bo'linadi. "Daraxt shaklida yozilganlar – mushajjar, hayvon timsolidagilar – mujassam yoki musavvar, aylana shaklidagilar – mudavvar, qush shaklidagilar – muakkad, kvadrat va geometrik shakldagilar esa mutarraf"¹ deb nomlangan. Muayyan uslubga ega bo'lgan bu she'rlarda so'zlarni teskari o'qiganda ham ma'noli bo'lishi, matnni to'g'ri o'qishda ba'zi so'zlarning harflaridan parol sifatida foydalanish, umumiy tovushlarni tasniflash kabi bir qancha tejamkorlikka asoslangan. Rasmi vizual matnlarga oid bunday qarashlar o'zbek adabiyotida ham mavjud bo'lib, dastlab, Ataulloh Husayniyning "Badoyi us-sanoiy" asarida yuqoridagi kabi mushajjar, mudavvar, muaqqad shakllari haqida gapirib o'tadi. Bu shakllarning hammasini birlashtirib turuvchi xususiyatlari shundan iboratki, matn ekspressivligi, badiiy estetikasi tasvirning bevosita obyektivlashtirilishi natijasida vujudga keladi. Natijada matn shakl bilan uyg'unlashgan holda qo'llanilib, adresantga yetkazilishi kerak bo'lgan ta'sir kuchi bilan bir qatorda qo'shimcha axborot berish vazifasini ham bajaradi. Vizual poetik matnlarning tadqiqi borasidagi g'oyalarni ilgari surgan va shu maqsad bilan ushbu yo'nalishdagi qarashlar shakllanishining asoschisi

¹Akay, S. (2020). Görsel şiir ve Siirtli iki şairin müşeccer şiirleri. *Siirt Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*, 8 (16), s. 289-303

bo‘lgan rus tadqiqotchilaridan biri “Viktor Sklovskiyning “mavhumlashish” tushunchasi turk adabiyotida yozilgan vizual she’rlardan ba’zilarining izohlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchi ushbu “mavhumlashtirish” tushunchasini shunday izohlaydi: Yashash uchun ma’naviy quvvat berish, ba’zi narsalarni to‘laligicha his qilish, toshni qattiq jismdan yaratilganligini bilish uchun san’at deb ataladigan tur bor. San’atning maqsadi biror narsaga bo‘lgan tuyg‘uni ko‘rinadigan narsa sifatida tasvirlashdan iborat”². Haqiqatan ham vizual poetik matnlarning dastlabki bosqichida, asosan, shaklga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, keyingi davrlarga kelib shaklga katta mazmun yuklatiladigan bo‘ldi, ya’ni endi ushbu tur ma’lum shakl orqali o‘quvchini mantiqiy fikrlashga tortadi. Shoirlar endi she’rlardagi poetik ekspressivlikni shaklga yuklay boshladi.

Mushajjar poetik matnlar. Mushajjar- daraxt shaklida tasvirlangan poetik matn turi. Arab tilidan olingan ushbu leksemaning ma’nosi “daraxt shaklida berilgan narsa” degan ma’noni anglatadi. Mushajjar arab tilshunosligining atamasi bo‘lib, uning mohiyati shundan iboratki, avval kelgan so‘z keyingi kelgan so‘z bilan izohlanadi. So‘zlar marjonga taqilgan marvarid ipi kabi bir-biri bilan hayratlanarli tarzda tartibga solinadi va tushuntiriladi. Bu so‘zlarni o‘zaro bog‘laydigan narsa ular o‘rtasidagi sinonimlik, yaqin ma’no va ba’zan antonimlik kabi sematik munosabatlardir. Turk adabiyotida Molla Hamid ijodida ushbu turning yorqin namunasi yaratilgan.




Şekil 1. Molla Hamid Efendi'nin müşeccer şiiri

² **Gökhan Tunç**, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, bilig, *BAHAR 2015 / SAYI 73,251*


Ushbu mushajjar poetik matnda Yaratgan ulug'lanib, unga baxshida shaklida bitilgan misralarda u Zotning ulug'vorligiga oid olqishlar ketma- ket darajalangan holda go'yo daraxt shoxlari kabi ta'riflar sinonimik qatorga tiziladi.

O'zbek vizual poetik matnlarida esa bunday turga oid birorta namuna yetib kelmagan, lekin Ataulloh Husayniyning "Badoyi us-sanoiy" asarida bu haqida ma'lumot keltirilgan.

Mujassam. Ushbu turga oid vizual poetik matnlarda tasvir ma'lum bir hayvon timsolida ifodalanib, matn mazmuni bevosita shu hayvon ramzi asosida yoritiladi.



Yusuf Bal ijodiga oid bo'lgan ushbu misolda bo'ri surati tasvirlangan. Matnda davlatlar o'rtasidagi ayovsiz kurashlar, qonli to'qnashuvlar bo'ringa o'lja izlab uvlashiga o'xshatiladi. Hatto matn so'ngida "a" tovushi orqali bo'ringa uvlashiga taqlid qilinadi. Bu o'rinda bo'ri ramzi yovuzlik timsoli hisoblanib, beshafqat urush qiyofasini ifodalab kelgan.



Ot shaklidagi ushbu tasvir shaxmat o'yinidagi "ot" donachasi deb nomlangan. Diniy mavzuda yozilgan ushbu poetik matn tangriga iltijo va jamiyatda bo'layotgan vaziyatga nisbatan munosabatlarni aks ettirgan. Muallif aynan shaxmat donachasini misol qilib olishining sababi shuki, jamiyatdagi oq va qora kuchlar o'rtasidagi o'zaro kurash ramziy ma'noda shu obrazlarga yuklatilgan. Poetik matn sarlovhasi "Qora ot" deb nomlanib, adresant ko'zlagan maqsad dinning buzilishiga olib kelayotgan qora kuchlarni shaxmat doskasidagi qora ot donachasi misolida berishni xohlaydi. Nima uchun aynan ot? Chunki turkiy madaniyatda ot "chopqirlik" ramzi sifatida belgilanadi. Ro'y berayotgan jirkanch voqea – hodisalar go'yo ot singari chopib borayotganligi matnda ifodalangan.

atim
gözbeğim
sadiq-dostumögel.
dertlerimi-dinle-benim.
yâr gelmiyor hasretliği-yetti canıma.
hangi-yütreğın-hasretimi-anlamaya-gücü-yeter.
özledim yine-de-bir-türlü-ona-gel-diyemedim.
sevdam nefes-almamı-zorlaştırdı-bilemedim.
söyle nasıl-yârime-gel-diyebilirim-akıl-ver.
kişne ovalar,-dağlar--yankılansın-sesinden.
of güzelliğini-kim-görse-sana-tutulur.
vereceğim seni-yârımı-almak-için.
ağlama-sen-de benim--gibi.
berdel gittin bir-köşke.
can atım affet,
ne olur. atı verirsen-yâri
alır sün dediler bana.
rehin bit sin.
yâr gel sin.
ya-da sen

Semeno'g'li ijodiga oid bo'lgan ushbu vizual matnda ham chopib borayotgan ot tasviri ifodalanib, unda yor vasli mavzusi yetakchilik qiladi. Adresant otga "sodiq do'stim" deb murojaat qilgan ekan, bu o'rinda otning sodiqligi bilan yorning bevafoqligi antonimik munosabatlarni keltirib chiqaradi. Otni do'sti deb bilgan adresant "joni bo'g'ziga yetganligini, hasratlarini eshitgani kimsa yo'qligini, yoriga kel deb ayta olmayotganligini" faqat otga oshkor qiladi. Matn o'ziga xos o'qish usuliga ega emas. Matn ot shaklida berilishiga qaramay, undagi misralar bir qator holatida o'qilaveriladi.

Turk adabiyotida "Ikkinchi yangi shoir"lar sirasiga kirgan namoyondalaridan biri Ilhan Berk bo'lib, shoirning turk adabiyotidagi o'ziga xosligi she'rlaridagi novatorligidir. Uning "Narsalar kitobi:Uy" nomli asaridan olingan quyidagi parchaga e'tibor qarataylik:

Duvar
Kapı
+ Pencere

EV (2008: 275) ³

³ Gökhan Tunç, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, bilig, BAHAR 2015 / SAYI 73,252

Vizual matni tashkil qilayotgan “devor”(duvar), “eshik”(kapı) va “deraza”(pencere) so‘zlarining qo‘shilishidan “uy”(EV) so‘zi hosil bo‘lgan. She’rning bunday tarzda qurilishi uyning inson ongidagi tasvirini yaratadi. Ya’ni uyni tashlik etuvchi asosiy detallarning ongimizdagi hayoliy tasviri devor, eshik va derazadan iborat. Shu bilan birga “uy” (EV) so‘zining bosh harflarda yozilganligi yuqorida ko‘rsatilgan so‘zlarning umumiy vasfi ekanligini anglatadi. Bundan tashqari uyni tashkil qiluvchi unsurlar alohida tahlil qilinganida eshik mantiqan uyning tashqaridan berkligiga ishora qiladi. Chunki, turk tilining etimologik lug‘atlarida “eshik” so‘zi eski turk lug‘atlarida “birlashgan”, “bekilgan” degan fe’ldan hosil bo‘lgan⁴ degan qarash mavjud. Poetik matndagi bunday o‘ziga xoslik matndagi eskpressivlik xususiyatini oshiradi.

Ev

Yaprak

- Pencere

Pencere (2008: 309)

5


Ushbu she’rda esa uydan yaproq so‘zini olib tashlansa deraza paydo bo‘lishi haqidagi oddiy qarashni ko‘rishimiz mumkin. Bir qarashga oddiydek tuyulgan ushbu she’r maznunan siz va bizga mavhum bo‘lgan tushunchalarni ifodalab kelmoqda. She’rdagi uy tashqi dunyodan uzilganlik ma’nosini bersa, yaproq tabiatga ishora, deraza tabiat va uy o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ya’ni bu o‘rinda uy ichki dunyo, yaproq tashqi dunyo bo‘lib, deraza ikki dunyoni bog‘lovchi ko‘prikdir. Vizual poetik she’rlar zamiridagi mana shunday mavhumlik she’r maznunining o‘zgarishiga hech qanday aks ta’sir ko‘rsatmaydi.⁶

Shu bilan birgalikda Ahmet Tellining “Kichik yulduzning so‘ngi balladasi” nomli she’ri mana shunday vizual poetik matnlarning yorqin namunasi sifatida e’tirof qilinadi.

⁴nisanyansozluk.com

⁵ **Gökhan Tunç**, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, *bilig*, BAHAR 2015 / SAYI 73,252

⁶ **Gökhan Tunç**, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, *bilig*, BAHAR 2015 / SAYI 73,252




Vizual poetik matn namunasi bo‘lgan ushbu she’rda Somonyo‘lidan ayrilgan bir yulduzning osmondan yerga tushgungacha bo‘lgan o‘ylari tasvirlangan. Matnda “tushyapman”(Düşüyorum) va “xayol qilyapman” (Düşlüyorum) so‘zlaridagi badiiy o‘ynoqilik matnning ham vizual, ham ma’no tomoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Ya’ni bir qaraganda matnning birinchi jumlasidagi “tushyapman” (Düşüyorum) so‘zidagi sh(Ş) harfidan keyin l harfining biroz qiyavon qilib pastga joylashtirilishi bir paytning o‘zida ikki so‘zga ishora qilib kelmoqda. Bu o‘rinda l harfi mantiqan tushayotgan yulduz ramzi bo‘lsa ham ajab emas. Keyingi jumladagi muayyan tashqi omilar ta’sirida vaqt o‘tishi bilan o‘ziga xos yaxshi fazilatlarni yo‘qatish, tanazzulga yuz tutish, o‘z mohiyatidan uzoqlashish, buzilish, tanazzulga yuz tushish, ikkilanish ma’nosini beruvchi “Tozlaşarak” so‘zining betartib joylashishi bir vaqtning o‘zida so‘z ma’nosi ham tasvirlab kelgan. Keyingi jumlada esa “xayol qilyapman” (Düşlüyorum) va “Tozlaşarak” so‘zlari qorishiq holatda tasvirlanib, yulduz shaklini hosil qilmoqda. Shu bilan birga “xayol qilyapman” (Düşlüyorum) so‘zining qiyavon holda joylashtirilishi mohiyatan “tushyapman”(Düşüyorum) so‘ziga ishora qilib ham kelmoqda. Bu o‘rinda birinchi jumla bilan ikkinchi jumla nisbatan bir-birining o‘rnida almashib kelib biri ikkinchisining ma’nosini ham izohlab kelmoqda. Oxirgi jumladagi “dunyo butoq bo‘lmasin”(Dünya olmasın dal) ifodasining butoq shaklda tasvirlanganligi ham matnga ajib bezak berib turibdi. She’r kapitalistik tuzum davriga ishora qilib kelmoqda. Ushbu vizual poetk matn Cho‘lponning “Mirrix yulduziga” nomli she’rini esga soladi.

⁷ **Gökhan Tunç**, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, bilig, *BAHAR 2015 / SAYI 73,255*



Ko‘rib turganingiz ushbu vizual matn turk novator shoirlarining yirik namoyondalaridan biri Pazarkaya qalamiga mansub bo‘lib, matn faqat “sevgi” so‘zi va uni hosil qiluvchi harflarning takrorlanishidan hosil bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Asosiy yuk ham aynan mana shu so‘z va harflarga tushadi. Bu o‘rinda “she’ni vizual tarzda shaklantirib turgan “sevgi” so‘zi tarkibidagi harflarning tepadan pastga alohida yozilishi natijasida bitta harfning ko‘payishiga guvoh bo‘lamiz. Bu esa sevgining tuyg‘ularga boyligi va shirin azob ekanligi bilan hayotni boyitib turganligiga ishora qilib kelgan bo‘lsa, buning aksi olaroq matn pastdan yuqoriga qarab o‘qilganda ayri yozilgan harflarning bitta S harfiga borib taqalishi sevgining birlashtiruvchi kuch ekanligiga urg‘u berib kelmoqda.”⁸ Vizula poetika namunasining go‘zal durdonasi hisoblangan ushbu matnda shoirning an’anaviy uslubdan qochganligi va fono-leksik vositalar orqali matn ta’sirchanligini oshirganligiga guvoh bo‘lamiz.

Adresantning vizual poetik unsurlardan foydalangan holda yaratgan matnlari adresatga yetkazmoqchi bo‘lgan axborotni to‘liq yetkazib berish bilan birgalikda boshqalardan ajratib turadigan usullarni qidirib topishdir. Shuning uchun vizual poetik matn namoyondalari bir-biridan ajralib turadigan usul va yo‘nalishlardan foydalanishga urinishadi.



⁸ **Gökhan Tunç**, Çağdaş Türk Edebiyatında Görsel Şiir, bilig, *BAHAR 2015 / Sayfa 260*

Ko'rib turganimiz ushbu vizual matn Turk vizual matn namoyondalaridan biri Ishinga oid bo'lib, matn XX asr boshlaridagi siyosiy vaziyatga nisbatan munosabat shaklida yozilgan. Matn faqatgina "trum trak" taqlid so'zlaridan iborat bo'lib, buning semaviy xususiyati tuzumga nisbatan norozilik tarzida ifodalangan. Ko'rib turganimizdek, matnda "trum trak"dan tashqari fotosurat ham berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 587-б
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild-Toshkent, O'zbekiston. 2020
3. O'zbek tilining izohli lug'ati-Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 3-jild,67-bet
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild-Toshkent, O'zbekiston, 2000. 213.
5. Abdurahmon A. G'aroyib avtobus-Toshkent, O'qituvchi. 2012, 84-b
6. Фахриёр. Геометрик баҳор. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 192.